

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MUARRIXLARI FAOLIYATIDAN LAVHALAR

Allayorova Sevinch Erkinovna

Qarshi davlat universiteti tarix fakulteti

3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Istiqlol bergen keng imkoniyatlar esa Amir Temur va temuriylar davri tarixini xolisona o'rganishni taqozo etdi. O'tmishda yashagan buyuk siymolar va ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida va ilm-fanda erishgan yutuqlarini kelajak avlodga etkazib berishda albatta tarix fani va mazkur fan olimlarining o'rni va roli juda muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Istiqlol, Amir Temur, temuriylar, ilm-fan, muarrixlar, tarix, Eron, Tabriz, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru.

Bizga ma'lumki, Amir Temur va temuriylar davri ilm-fan o'zining yuksak darajasiga ko'tarila oldi. Chunki sohibqiron va uning avlodlari tarix faniga jiddiy e'tibor bergenlar. Bu davr tarix ilmida nafaqat sultanat miqyosida balki butun Sharq olamida mashhur bo'lgan buyuk muarrixlarni etkazib bergen. Bular orasida ayniqsa G'iyyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Mu'iniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxon, Xondamir kabi etuk muarrixlarni aytib o'tish mumkin. Bu olimlar temuriylar davrida yashagan va mazkur sultanat hukmdorlari faoliyati va shu davrni aks ettiruvchi salmoqli asarlar ham yaratganlar. Quyida ana shunday muarrixlardan ba'zilarining hayoti va ilmiy merosi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Nizomiddin Shomiy.** Asl ismi Ali ibn Muhammad<sup>1</sup>, bo'lgan bu shaxsning nomi muarrixlar Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalarning asarlarida ko'pincha Nizomuddin Shanbiy yoki Mavlono Nizomuddin Shanbi G'ozoniy (asli Tabrizning shimoli-g'arbiy tarafida, undan taxminan ikki mil masofada joylashgan Shanbi G'ozon degan joydan bo'lgani uchun) nomi bilan mashhur<sup>2</sup>. Nizomiddin Shomiyning tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, uning vafoti 1404-1409 yillar orasida yuz bergen<sup>3</sup>. O'sha davr muarixi Hofizi Abru 1412 yil voqealarini bayon etar ekan, allomani marhum sifatida tilga olgan<sup>4</sup>.

Olim nafaqat tarixchi, balki tarjimon sifatida faoliyat ko'rsatganligi ham tarixdan ma'lum. Eronlik mashhur sharqshunos olimlardan Husayn Naxichevniy va Donish

<sup>1</sup> Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: "Sharq", 2001. B. 203.

<sup>2</sup> Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. 2-nashri. – T., "O'qituvchi", 2001. B. 165-166.

<sup>3</sup> Ko'rsatilgan asar. B. 167

<sup>4</sup> Shu joyda. B.167

Pajuhlar Shomiyning ilmiy faoliyatiga doir ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Ularning so'zlariga qaraganda, mavlono Nizomiddin Shomiy Nizom Tabriziy nomi bilan ham mashhur bo'lgan va Jaloyiriylardan Shayx Uvays I (1356-1374 yy.)ning topshirig'iga binoan Muhammad ibn Abdulloh ibn Zafar Makkiy Andalusiyning (XII a.) "Sulvon al-mutta'fi uvon al-atba" ("Suluk mashaqqatlarida podsholar bog'i") nomli asarini (1159 y.) arab tilidan forschaga tarjima qilganligi keltirib o'tilgan<sup>5</sup>.

Shuningdek, olimning Muhammad payg'ambar va o'n ikki imomning qisqacha tarjimai holiga bag'ishlangan yana bir asar yozganligi, asl ismi esa Ali ibn Muhammad bo'lib, ko'pincha Nizom ul-Voiz nomi bilan mashhur bo'lganligini eronlik sharqshunos olim Donish Pajuh eslatib o'tadi<sup>6</sup>.

Shomiy "Zafarnoma"da o'zi haqida Sohibqiron bilan uchrashuvlari va mazkur asarning yozilishi tarixi haqidagi ma'lumotlar qisqa tarzda bayon qilingan. Mavlono Nizomiddin 1393 yilning avgust oyida Amir Temur askarlari Bag'dod shahrini zabit etganliklari haqidagi voqealarni qalamga olar ekan, o'zi birinchi bo'lib shahardan chiqqanligi, hazrat Sohibqiron bilan uchrashib, suhbatida bo'lganligini eslatib o'tadi<sup>7</sup>. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Nizomiddin Shomiy 1393 yili Bag'dodda yashagan va uning Amir Temur bilan dastlabki uchrashuvi ham aynan shu yilda sodir bo'lgan, shuningdek olim shu vaqtadan Sohibqironning xizmatida bo'lgan deyish mumkin.

Amir Temur bilan olimning keyingi uchrashuvi esa «Zafarnoma»ning 1400 yil voqealari bayon etilgan varaqlarida uchraydi. O'sha yili oktyabri oyida Amir Temur Shom (Suriya) tegrasida joylashgan Halab shahrini qamal qilgan. Muallifning yozishicha, u o'sha vaqtda Hijoz tomon safariga ketayotganida, shahar muhofazachilari undan shubhalanib, uni to'xtatganlar va qal'a ro'baro'sidagi bir binoga qamab qo'yanlar. Bu erdan u qal'aning zabit etilishini o'z ko'zi bilan ko'rgan<sup>8</sup>.

Amir Temur davri muarrixlaridan bo'lgan tarixchi Hofizi Abruning ta'kidlashicha, jangdan so'ng Jalol us-Islom nomli bir amir Nizomiddin Shomiyni Sohibqiron huzuriga olib kelganda, Hazrat unga iltifotlar ko'rgazib, yaxshi qabul qilgan<sup>9</sup>. Manbalardan ko'rinish turibdiki, Nizomiddin Shomiy tez orada Sohibqironning nazariga tushgan va uning ishonchiga ham sazovor bo'la olgan deyish mumkin.

Nizomiddin Shomiy tomonidan bir nechta asarlar tarjima qilinganligi va yozilganligiga qaramay uni mashhur qilgan asar «Zafarnoma» asari hisoblanadi. Sohibiron olimni huzuriga chorlab, o'z yurishlari bitilgan salmoqli bir asar yaratishga undagan. Temurbek o'sha davrga qadar munshiy va kotiblari tomonidan yozilgan

<sup>5</sup> Ahmedov.B. O'zbekiston tarixi manbalari – T., "O'qituvchi" 2001. B.166

<sup>6</sup> O'sha joyda

<sup>7</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. B.4

<sup>8</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. B.4

<sup>9</sup> Shu joyda

bitiklar uni qoniqtirmaganligini aytgan. Yozilajak asarni bir tomondan, avom xalqqa tushunarli, sodda, ravon tilda va ayni paytda ma'rifatli kishilar e'tiboriga ham loyiq tarzda yozilishini uqtirgan.

«Zafarnoma»ning yozilish tarixi haqida shuni ta'kidlash joizki, Mavlono<sup>10</sup> Shomiyning o'zi bergen ma'lumotga ko'ra, “Bu kitob yozilishining sababi shul erdikim, sakkiz yuz to'rtinchi hijriy yilda (1401 yil 11 avgust – 1402 yil 1 avgust) Amir Sohibqiron hazratlari, Alloh taolo sultanatlarini zamon oxirigacha barqaror etsin, kamina bandangiz Nizomiddin Shomiyni huzurlariga keltirishni buyurdi. Men palos o'pish sharafiga musharraf bo'lganimda (ul hazrat) siylashu izzatlash marosimlarini bajo keltirib, lutfu ehsonlar ko'rsatdilar. Shundan keyin tarbiyat va bandaparvarlik yuzasidan oliy ishorat sodir bo'ldikim, garchi u zot qilgan ishlarining bu abadiyatga ulangur davlatning boshlanishidan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan tarixini onhazrat uchun yozgan bo'lsalar ham, ammo ular hali munosib tarzda jamlanib, taqdim etilmagan ekan, bu banda (Nizomiddin) ularni yig'ib, ortiqcha so'zlardan tozalab, bob-bob qilib tartib berishga mashg'ul bo'lgaymen, lekin shu shart bilanki, takallufu bezak berish, lof urish ziynatidan o'zimni tiygaymen; (agar) uslubi so'z oroyishiyu iboratorolik san'atidan sof va xoli bo'lg'ay”.

Nizomiddin Shomiyga Sohibqiron tomonidan qo'yilgan qat'iy talabni olim o'z asarida yana shunday izohlaydi: Yana Sohibqiron hazrat menga: “Shu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtada yo'qolib ketadi, agar so'z qoida-qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nisini fahmlab qolsa qolar, ammo qolgan o'ntasi, balki yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga etishdan ojiz. Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi”.

Mavlono Shomiy Sohibqironning bu mas'uliyatli talabini bajarishni o'z bo'yniga olgan va olim bu ishni uddasidan chiqa olgan deb ayta olishimiz mumkin. U bu haqida shunday deydi: “Men duo marosimini bajo keltirgach, arz izzatgohiga shunday deb etkazdim: “Agar hukmlari joriy bo'lsa, bu banda shu tariqa yo'ldan borgaymen, qudratim etguncha uning uddasidan chiqishga uringaymen va bu xizmatni umrim sharafi deb bilgaymen”. Ko'rinish turganidek, Amir Temur tarixiy asar yaratishdan maqsadni, bayon uslublarini aniq tasavvur qilgan ya'ni tarix omma, keljak uchun yozilishini alohida uqtirgan. Shu boisdan ham Shomiy Sohibqiron talablariga mos asar yaratishga harakat qilgan.

Mazkur uchrashuvdan so'ng Nizomiddin Shomiy buyuk hukmdorning saroy tarixchisi sifatida Amir Temurning keyingi barcha yurishlarida unga hamrohlik qilgan. 806 yil muharram oyida (1403, iyuli-avgust) Gruziyadagi Birtis qaliasi zabit etilishini yozar ekan, Nizomiddin Shomiy bu voqeani o'zi kuzatganligini aytadi. Shomiy

<sup>10</sup>

yurishlardan birida iydi ramazon munosabati bilan yig'ilgan jamoaga va'z aytib, so'ng iyd namozida peshnamozlik qilgan. Bu voqeani mashhur tarixnavis Sharafiddin Ali Yazdiy shunday tavsiflagan: "Va hazrat sohibqiron andin ko'chub, ov solib, Og'laq suyidin yaqosida Baloravadqa kelib tushti va anda necha kun turub, ramazon oyi kechib, iyd bo'ldi. Shanba kunikim, iyd erdi (12.04.1404), namoz o'qub, Mavlono Nizomuddin Shibliykim, ulamolar ichida mashhur erdi, xutba o'qudi. Va namozdin so'ng suhbatlar tutub, iyd qildilar, da'vatlar tortib, majlisdagi fozillarg'a inoyatlar qildi.

Akademik Bo'riboy Ahmedovning ta'kidlashicha, "Zafarnoma"ning ikkita tahriri mavjud bo'lib, birinchisi Nizomiddin Shomiy Sohibqiron yurishlarini 1404 yil bahorigacha etkazib, asarni tamomlagan va uni Ozarbayjondan Samarqandga qaytish taraduddida bo'lgan Amir Temurga taqdim etgan nusxasidir. Mazkur nusxaning nomi ma'lum emas.

Shuningdek ikkinchi nusxa esa Mironshohning o'g'li Mirzo Umarga (1404 yil 26 martda Amir Temur Qorabog'da ekanligida unga "Halokuxon taxti")ni, ya'ni G'arbiy Eron hamda Ozarbayjoni in'om qilgani paytida taqdim qilingan. U yuqorida qayd etib o'tilgan birinchi nusxadan farq qilmagan. Unga ayrim uslubiy tuzatishlar kiritilgan debocha hamda va Mirzo Umarga bag'ishlangan kichik bir ilova (Zayl) qo'shilgan. Demak Nizomiddin Shomiy umrining oxirlarida Sohibqironning nabirasi Mirzo Umar xizmatida bo'lganligi va uning yurti Tabrizda istiqomat qilgan bo'lishi mumkin. Buyuk Sohibqironning 1405 yil fevrali oyigacha bo'lgan voqealar esa keyinroq Hofizi Abru tomonidan «Zayl» – (Illova) tarzida yozilganligi manbalarda qayd etilgan. "Zafarnoma" asari nafaqat O'zbekiston balki Qozog'iston, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr boshlaridagi siyosiy-ijtimoiy tarixini o'rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi.

Nizomiddin Shomiy mazkur asarni yaratishda Amir Temurning uyg'ur kotiblari tomonidan yozilgan "Tarixi xoniy" nomli she'riy asari va boshqa asl nusxa asarlardan foydalangan. Muarrixning asl manbalar asosida akitobini yozishi asarning qiymatini yanada oshirgan.

Bugungi kunda «Zafarnoma»ning qo'lyozma nusxalari jahoning turli davlatlari jumladan, Armaniston (Erevan)da, Angliya, Fransiya, Iroq va Turkiya kabilarning markaziy kutubxonalarida saqlanmoqda. Mazkur asarning matni 1937 va 1956 yillarda Pragada chop etilganligi (Tauer nashri), shuningdek, uning turkcha-usmonlicha tarjimalari (1949 y.) ham mavjudligi juda muhim. Ana shu tarjimalardan ayrim parchalar rus va fransuz tillariga ham e'lon qilingan.

Istiqlol yillarida olimlarimizning say'i harakatlari bilan "Zafarnoma" asari keng kitobxonlar uchun o'zbek tiliga tarjima qilindi (1996 y). Mazkur asarni fors tilidan o'zbek tiliga Yunusxon Hakimjonov tarjima qilgan. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir Asomiddin O'rinoev, izohlar va lug'atlarni tuzuvchi Habibullo Karomatov, jug'rofiy nomlar izohini Omonullo Bo'riev, Hofizi Abruning

“Zafarnoma”ga yozgan “Zayl”i (“Illova”)ni forsiydan o'giruvchi va izohlarini tuzuvchi Omonullo Bo'reiev, muharrir Muborak Fozilova. Asarning fidoiy olimlar tomonidan tarjima qilinib, nashr etilishi Sohibqironning 660 yillik yubileyiga munosib tuhfa bo'lgan edi.

Xullas, Nizomiddin Shomiy va uning “Zafarnoma” asari shu jihatdan qimmatliki, XIV-XV asrlar Amir Temurni yaqindan ko'rib, o'zi ko'rgan voqealarni tarixini haqqoniy aks ettirish bilan birga, bu asar keyingi davr muarrixlari, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyni ham, ushbu bitikka tayanishiga to'g'ri kelganligini ta'kidlab o'tish mumkin.

Chamasi, XVI-XVIII asrlar O'rta Osiyo muarrixlari ham Shomiy asarlariga tayanishgan. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, mazkur asar temuriylar davrida tarixnavislik o'zining eng yuqori cho'qqilaridan biriga chiqqanligini ko'rsatadi. Nizomiddin Shomiy va uning “Zafarnoma” asari hozirgi davrda ham Sohibqiron Amir Temur davri tarixini o'rganishda eng muhim noyob manba bo'lib xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo. Ozbek davlatchiligi tarixi. – T.: „Sharq”, 2001.
2. Axmedov B. Ozbekiston tarixiy manbalari. 2-nashri. – T.: „Oqituvchi”, 2001
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Forschadan Yu.Hakimjonov tarjimasi. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir A.Orinboyev. – T.: „Ozbekiston”. 1996
4. B.J.Eshov, A.A. Odilov. Ozbekiston tarixi. 2-kitob. – T.: „Donishmand ziyosi” 2020.